

**GEMOLITIK KASALLIKLARNI ANIQLASHDA
KANI-LABORATORIYA VA SURXONDARYO VILOYATI
SHIFOXONALARIDAGI LABARATORIYADA
OLIB BORILAYOTGAN ISHLARNING QIYOSIY TAHLILI**

Odilova Shahnoza Xayrulloevna

Termiz davlat universiteti biologiya fakulteti botanika yo‘nalishi 2-bosqich magistiri

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada gematologiya sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, gemolitik kasalliklarni aniqlashda KANI-laboratoriya va Surxondaryo viloyati shifoxonalaridagi labaratoriyada olib borilayotgan ishlarning qiyosiy tahlili to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: gematologiya, turmush tarzi, aholi, qon, profilaktika, laboratoriya, klinik, tashxis

Jahon sog‘lijni saqlash tashkiloti tahliliga ko‘ra, davolash inson salomatligini ta’minlashning 10 foiz omili, xolos. Irsiy omillar 15 foiz, atrof-muhit 20 foiz, eng asosiysi, turmush tarzi 55 foizni tashkil etadi. Koronavirus kasalligi ham noto‘g‘ri turmush tarzi og‘ir oqibatlarga olib kelishini ko‘rsatdi. Ammo bugungi kunda mamlakatimizda aholi bilan eng ko‘p ish olib boradigan qishloq vrachlik punktining umumiyl amaliyot shifokori zimmasiga 146 turdag'i kasallikka diagnoz qo‘yish va davolash, 213 turdagisiga birlamchi diagnoz qo‘yish va yo‘llanma berish, shuningdek, reabilitatsiya, dispanserizatsiya va profilaktika bo‘yicha juda ko‘p vazifalar yuklatilgan.

Gematologiya — qon va uni ishlab chiqaradigan qo‘miqning tarkibi, funksiyalari, kasalliklari haqidagi fan. Gematologiya qonni optik, elektron, fazali kontrast, fluorescent mikroskopiya, mikrokinematografiya, mikroskopik gisto va sitokimyoviy usullar yordamida o‘rganadi. Qon sistemasi kasalliklarini aniqlashda gematologiya punksion biopsiyadan (organizmning hayotlik davrida qo‘miq, limfa tugunlari, taloq, jigar hujayralari va to‘qimalardan olib tekshirish), biokimyoviy, fermentologik, sitogenetik, kimyoviy-genetik, spektrotsitofotometrik (dezoksiribonuklein va ribonuklein kislotalarini tekshirish yo‘li bilan), radioizotop-immunologik, elektroforez va immunoelektroforez, to‘qimalarni kuliural o‘stirish va boshqa usullardan foydalanadi.

Gematologik kasalliklar XIX asrdan boshlab muntazam tadqiq qilingan. Nemis olimlaridan R. Vixrov (1845), E. Neymann (1870) leykozni, ingliz vrachi T. Addison

(1855) va nemis vrachi A. Birmer (1872) pernitsioz anemiyani, nemis olimi P. Erlix (1888) aplastik anemiyani, fransuz olimi G. Gayem (1898), nemis olimi O. Minkovskiy (1900) va fransuz olimi A. Shoffar (1907) gemolitik anemiyani tasvir etishdi. Rus olimlaridan A. A. Maksimov tomonidan kashf etilgan qon yaratilishining unitar nazariyasi gematologiyaning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etdi.

Qon sistemasi kasalliklarini klinik morfologik usul bilan o'rganish klassik gematologiyaning vujudga kelishiga asos bo'ldi. Olimlardan M. I. Arinin to'sh suyagini punksiya qilish usulini (1927), I. A. Kassirskiy unda ishlatiladigan punksion ninani hamda limfa tugunlari, taloq, jigar punklarining sitologik diagnostika usullarini joriy qilishdi, bu usullar qon sistemasini kasalliklarini bemorlarda tezroq oydinlashtirish imkonini beradi, anemiyalarning tasnifi va davolash usullari ishlab chiqildi. O'zbekistonda aholi orasida uchraydigan gemolitik va temir tanqisligi bilan bog'liq kamqonliklarning turlari, kelib chiqish sabablari atroficha o'rganilgan, ularni davolashni optimallashtirish, tashxisini osonlashtirish imkoniyatlari ishlab chiqilgan. Hozir yuqorida qayd etilgan kamqonliklarning ekologenetik jihatlari aniqlanmoqda.

Qon yaratilishi va anemiyalarning kelib chiqish mexanizmini izotoplar yordamida aniqlash katta rol o'ynadi. Amerikalik olim V. Kasl ovqatda vitamin (siankobalamin) yetishmasligi pernitsioz anemiyaga sabab bo'lishini aniqladi. XX asrning 60-yillariga kelib deyarli barcha gemolitik anemiyalarning kelib chiqishi o'rganilib, ko'pgina yangiliklar qo'lga kiritildi. Irsiy sferotsitar gemolitik kamqonlikda taloqning olib tashlanishi ushbu darddan tuzalish mumkinligini ko'rsatdi. Gemorragik diatezlardan trombotsitopenik purpurda bemor talog'ini olib tashlash, trombasteniyada unga adenozintrifosfat kislotani buyurish maqsadga muvofiq ekanligi ma'lum bo'ldi. Trombosil bo'lishiga to'sqinlik qiladigan preparatlar (geparin, fibrinolizin va), shuningdek qonni ivituvchi sistemaning faolligini va tomirlar devorining pishiqligini oshiradigan preparatlar (rutin va boshqalar) ishlab chiqarildi.

XX asrning o'rtalaridan boshlab gematologiyaning yangi tarmog'i — immunogem atologiya ancha rivoj topdi. Unga qon guruhlari va rezus-faktor haqidagi ta'limot organizmning o'z to'qimalariga nisbatan antitelolar paydo bo'lishi (autoimmunizatsiya) va yot to'qimalarga nisbatan antitelolar hosil bo'lishi haqidagi bilimlar kiradi.

Gematologik va onkologik kasalliklarga chalingan bemorlarni tibbiy jihatdan yanada qo'llab-quvvatlash, aholi orasida gematologik, onkogematologik skrining dasturlarini joriy qilish, ushbu kasalliklarga chalingan bemorlarga qo'shimcha qulayliklar va shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ahолига gematologiya va onkologiya xizmatlarini ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" 2021-yil 27-maydagi PQ-5130-sod qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaroriga muvofiq 2022-yil 1-yanvardan

boshlab Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazi Respublika ixtisoslashtirilgan gematologiya ilmiy-amaliy tibbiyat markazi tarkibidan chiqarildi, ilg‘or xorijiy tibbiyat muassasalarining tajribasidan kelib chiqqan holda Respublika ixtisoslashtirilgan gematologiya ilmiy-amaliy tibbiyat markazi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan onkologiya yordamini takomillashtirish va onkologiya xizmatini yanada rivojlantirish bilan bog‘liq xarajatlar uchun Davlat budjetidan 2022-yildan boshlab 125 mlrd so‘mdan kam bo‘limgan miqdorda mablag‘ ajratilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilndi.

Farmon ijrosini birgina Surxondaryo viloyati misolida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak , belgilangan rejaga asosan 2022-2025-yillar orasida laboratoriyyada mavjud laboratoriya vositalarini bosqichma-bosqich yangilash nazarda tutilib, shu yilning o‘zida Surxondaryo viloyatidagi laboratoriya markazlariga 67 ta yangi rusumdag‘i maxsus apparat vositalari keltirildi. Bu esa xalqimizning salomatligini tiklash, dardga chalinganlarga tez tashxis qo‘yish va kasalliklarini aniqlash, o‘z vaqtida muolaja qilish, ayniqsa, olis qishloqlardagi aholiga malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Xususan, bugungi kunda viloyat ko‘p tarmoqli bolalar tibbiyat markazida 20 o‘rinli gemotologiya bo‘limi ochilgan bo‘lib, bu yerda viloyatning barcha go‘shalardan dardiga shifo izlab kelgan 18 yoshgacha bo‘lgan gemotologik va onkogemotologik xastaliklarga chalinganlar davolanayapti. Viloyatdagi 18 yoshgacha bo‘lgan onkogemotologik xastaliklarga uchragan bolalarni respublika bolalar gemotologiyasi, onkologiyasi, klinik immunologiyasi markazi mutaxassislari bilan hamkorlikda davolash choralar ko‘rilmoxda. Tibbiyat sohasi xodimlari bilan uchrashuv va suhbatlar jarayonida ularning muammolarini hal etish omillari izlanmoqda. Jumladan, onkogemotologik xastaliklarni aniqlash va tashxislash imkonii viloyatdagi shifoxonalarda mavjud bo‘lib, faqat poliximiyyaterapiya muolajalarini olish uchun bemorlar markazdagi shifoxonalarga jo‘natilmoqda. Bu masalada shifokorlar bilan maslahatlashuvlar olib borilayapti va 2023-yil mart oyigacha poliximiyyaterapiya muolajalari Termiz shahridagi tibbiyat muassasalarida tashkil qilinadi. Shuni aytish kerakki, bemorlarga ishlatiladigan kimyoviy preparatlar ta’midotida muammo yo‘q.

Bundan tashqari, viloyatda onkogemotologik xastaliklarga chalingan 100 nafar bemorni dori-darmon bilan ta’minlash va laborator asbob-uskunalar bilan xizmat ko‘rsatishni yaxshilash maqsadida viloyat qon quyish stansiyasida trombokonsentrat tayyorlash uchun o‘rnatilgan trima apparatidan samarali foydalanilmoqda. Natijada onkogemotologik xastalikka uchragan bemorlar poytaxt va markaziy shaharlarga sarson qilinmayapti, ular Termiz shahridagi tibbiyat muassasasida trombokonsentrat

olish imkoniga ega bo‘lishgan. Bu esa og‘ir ahvoldagi bemorlarni tezda sog‘aytirish va davo muolajalarini barvaqt boshlashga zamin yaratmoqda.

Xulosa qilib aytganda, o‘tgan yillar ichida aholi salomatligini mustahkamlash, ayniqsa, onalik va bolalikni himoya qilish bo‘yicha bir qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, respublika sog‘liqni saqlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda markaziy shaharlar va olis qishloqlarda yashovchi yurtdoshlarimizga birdek malakali tibbiy xizmat ko‘rsatishni yaxshilash, sohada yillar davomida to‘planib qolgan muammo va kamchiliklarni hal etishda tibbiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ahliga gematologiya va onkologiya xizmatlarini ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2021-yil 27-maydagi PQ-5130-son qarori
- 2.O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
- 3.Agranenko V. A., Axramov S. M., Jerebsov L. Ye., Komponentnaya gemoterapiya, T., 1995;
- 4.Petrov V. N., Baxramov SM., Farmankulov X. K., Jelezodefitsitnie anemii, T., 1995;
- 5.Najmuddinov S. T., Klinik gematologiya asoslari, T., 1998.